

O'QUV DASTUR PASSPORTI

O'quv dasturi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Uzluksiz tibbiy va farmatsevtik ta'limni
Muvofiqlashtiruvchi kengashda tasdiqlangan 2026 yil dagi MMO-
sonli bayonnomasi asosida

Amal qilish muddati 2028 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi		
Kafedra/bo'lim	Neyroreabilitasiya		
O'quv dastur nomi	Ambulator nevrologiya		
O'qish turi	Mavzusida malaka oshirish		
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Mirdjuraev E.M, Baxadirova M.A, Shadmanova L.A, Akilov J.X.		
Siklning umumiy soati	o'qish hajmi– 144 kredit		
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar			
 Kafedra mudiri t.f.d. Professor Mirdjuraev E.M.	 DSc, kafedra professori Baxadirova M.A	 t.f.n., dotsent Shadmanova L.A.	 t.f.n., dotsent Akilov J.X.
Maqsad	Professional kompetensiyalarini takomillashtirish asosida, nevrologiyada eng ko'p uchraydigan holatlarning asosiy patologik holatlarini aniqlash, hozirgi zamon talablariga mos mahoratini oshirish, xalqaro kasalliklar tasnifiga mos keladigan o'tkir nevrologik kasalliklarning nozologik shakllari, ambulator va stasionar sharoitida nevrologik kasalliklarni tashxislash va davolash, bemor hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch yordam ko'rsatish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish va yangilashdan iborat.		
Tsiklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Poliklinika va statsionar shifokorlari, internatura, klinik ordinatura, magistratura yoki boshlang'ich ixtisoslashtirishda mazkur mutaxassislik olganligini tasdiqlovchi hujjati bo'lgan vrachlar.		
Tsikl vazifalari	1. Shifokorlar nevrologiyada ko'p uchraydigan holatlarning dolzarb sohasidagi yangi texnologiyalar va reabilitatsiya usullarni o'zlashtirishga layoqatini shakllantirish. 2. Mustaqil ravishda kasbiy davolash diagnostika, tashhislash faoliyatini olib borishga mukammal ravishda zamonaviy darajada kasbiy malakasini qayta oshirib,nevrologiyada ya'ni nevrologiyada kechiktirib bo'lmaydigan holatlar sohasidagi differensial diagnostik izlanish olib bora oladigan, to'liq hajmda tibbiy yordam ko'rsatish: shuningdek shoshilinch holatlarda yordam ko'rsatish, turli yoshdagi bemorlar sog'ligini saqlash uchun profilaktik va reabilitatsion tadbirlar ko'nikmasini zamonaviy ko'rsatkichlar asosida yangilash. 3. Nevrologiya sohasidagi ko'nikmalar va shifokor manipulyatsiyalarini bajara oladigan, shu jumladan reabilitatsion tibbiy yordam ko'rsata oladigan bilimlarinimustahkamlash. 4. Shifokorlarda erkin fikr yuritishga imkon umumiy va maxsus bilimlar, ko'nikmalarni mukammallashtirish.		

	5. Nevrologiyada bilimlarni chuqurlashtirish, klinik fikrlash va ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, qo'shimcha tekshirishlar o'tkazish va ular natijalarini interpretatsiya qilish, diagnostik jihatdan murakkab va kam uchraydigan kasalliklarni erta aniqlash ko'nikmalarini takomillashtirish	
Tsikl tarkibi	1. Modul Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik tahlili va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. 2. Modul Koma holatidagi bemorning klinik belgilari va davolashda zamonaviy yondoshuv prinsiplari 3. Modul Miya ichki qobig'i gipertenziyasining dolzarb muammolari. 4. Modul Bosh miya o'tkir qon aylanishining buzilishini rehabilitatsiyasida dolzarb muammolari 5. Modul Tutqanoq sindromida birinchi yordamning dolzarb muammolari 6. Modul Bosh miya jarohatlarini zamonaviy diagnostikasi va davolash prinsiplari 7. Modul Asab tizimining o'tkir va yallig'lanish xastaliklarini dolzarb muammolari 8. Modul Serebro-vaskulyar kasalliklarni birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi 9. Modul Asab tizimi va vertebrogen kasalliklari 10. Modul Asab tizimi neyro-degenerativ va demielinatsiyalovchi kasalliklari 11. Modul Psixo-somatik kasalliklar	
O'qish bazalari	1 sonli ShKSh 	Neyrohhelp xususiy markazi 
	Simulyatsion asbob/uskunalar 	